



“TASDIQLAYMAN”

**Farg‘ona jamoat salomatligi
tibbiyot instituti rektori**

A. Sidikov

2021 yil

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT
INSTITUTI IQTIDORLI TALABALARNI IZLASH,
ANIQLASH VA ULARNI MAQSADLI
TAYYORLASH TO‘G‘RISIDAGI
NIZOM**

**Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti iqtidorli talabalarni izlash,
aniqlash va ularni maqsadli tayyorlash to'g'risidagi**

NIZOM

Mazkur Nizom, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va u iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash tartibi hamda ular bilan maqsadli ishlashning shakl va uslublarini belgilaydi.

I. UMUMIY QOIDALAR

Iqtidorli yoshlar – O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotini hamda uning jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashini ta'minlovchi muhim omil va millat ziynati hisoblanadi.

1. Iqtidorli talabalar maqsadga intilish, qat'iylik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini hamda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish istagi bilan ajralib turadilar.

2. Iqtidorli talabalarni izlash, aniqlash va maqsadli tayyorlashning asosiy maqsadi - respublikaning ilmiy va ijodiy salohiyotini rivojlantirish va bu borada yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy faoliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratishdir.

**II. IQTIDORLI TALABALARNI MAQSADLI TAYYORLASHNI
VAZIFALARI**

3. Institutda iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlashni vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtidorli talabalarning intellektual salohiyotini chuqur bilim olishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;

- malakali professor-o'qituvchilarni iqtidorli talabalar bilan individual ishlashga jalb etish;

- ilm-fan taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlariga iqtidorli talabalarni keng jalb etish;

- iqtidorli talabalarning ma'lumotlar banki va monitoringini shakllantirish;

**III. IQTIDORLI TALABALARNI IZLASH, ANIQLASH HAMDA ULAR
FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI**

4. Oliy o'quv yurtlarida iqtidorli talabalarni izlash o'qishning dastlabki kunlaridan va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish jarayonida amalga oshiriladi.

5. Iqtidorli talabalar, boshlang'ich bilimlar hisobga olingan holda, psixologik va pedagogik testlar o'tkazish orqali qobiliyatning rivojlanganlik darajasiga qarab aniqlanadi;

6. Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash dasturlarida quyidagi omillar nazarda tutiladi:

- fanlarni yuqori darajada o'zlashtirish;
- kompyuter bilimdonligi hamda programmalashtirish;
- chet tillaridan birini puxta egallashi;
- ilmiy-ijodiy ishlarni bajarish jarayonida mustaqil fikrlash, yangi fikr va mulohazalarni, bildirish va amalda tadbqiq etish;
- soha bo'yicha mustaqil bilim olishga yo'naltirish va ilm-fan sohasidagi yangiliklarni tezkorlik bilan egallash xususiyatlarini shakllantirish;
- davlatning ichki va tashqi siyosatini to'g'ri tushunadigan va uni qo'llab-quvvatlaydigan, vatanparvar, barkamol inson etib shakllantirish.

IV. IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLOVCHI RAHBAR VA PROFESSOR – O'QITUVCHILARNI TANLASH

7. Iqtidorli talabalar bilan ishlashga ilmiy darajali, yuqori malakali, ko'p yillik ilmiy-pedagogik tajribaga ega bo'lgan, talabani maqsadli tayyorlash dasturi bo'yicha yetarli bilimga ega professor – o'qituvchilar jalb etiladi.

8. Iqtidorli talabalarga ilmiy rahbar etib, ijodiy va uslubiy ishlash tajribasiga ega bo'lgan, o'quv-uslubiy va ilmiy faoliyati bo'yicha reytingi yuqori bo'lgan professor, dotsent, o'qituvchilar tayinlanadi.

9. Iqtidorli talabalar ilmiy rahbarlarining asosiy vazifalari:

- iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash dasturini tuzish va uni amalga oshirishga rahbarlik qilish;
- iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'yicha yetakchi xorijiy davlatlardagi ilg'or, tajribalarni o'rganish, faoliyatida qo'llash;
- yangi pedagogik texnologiya, kompyuter texnologiyasi va video-audio texnikalarini keng qo'llash.
- maqsadli dasturni muvaffaqiyatli bajarayotgan iqtidorli talabalarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

V. IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHNI TASHKIL ETISH

10. Iqtidorli talabalar bilan ishlashning shakl va uslublari:

- o'qitishni individuallashtirish;
- talabalarning intellektual salohiyoti va qobiliyatlarini bilim olishga yo'naltirish;
- talabalar qobiliyatini rivojlantirish uchun maksimal shart-sharoitlarni yaratish.

11. Iqtidorli talabalar bilan ishlashni sifatli tashkil etish maqsadida fakultet va kafedralarda quyidagi ish qog'ozlarini yuritish tavsiya etiladi:

- iqtidorli talabalar bilan ishlash Nizomi;
- iqtidorli talabalar bilan ishlashning ish rejasi;
- yillik xisobotlar;
- iqtidorli talabalarga oid rektorning buyruqlari;
- fakultet, kafedralar bo'yicha iqtidorli talabalar ro'yxati;

- murabbiylarning iqtidorli talabalar bo'yicha bergan tavsiyalari;
- konferentsiya, olimpiada, tanlov o'tkazilishiga oid xujjatlar;
- iqtidorli talabalarni izlash va ularni maqsadli tayyorlashga tegishli

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, Vazirlar Maxkamasining Qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining buyruqlari va Xay'at qarorlari;

- xat va arizalarni qayd etish kitobi.

12. Maqsadli tayyorlashning o'quv-ijodiy va tarbiyaviy dasturi iqtidorli talaba tomonidan tanlanadi va uning bajarilishi bo'yicha nazorat muddatlari ko'rsatilgan shaxsiy o'quv reja va ilmiy-ijodiy ishlar rejasi tuziladi hamda institut ilmiy kengashi tavsiyasiga binoan oliy o'quv yurtining farmoyishi bilan tasdiqlanadi.

13. Ilmiy rahbar iqtidorli talaba bilan chuqurlashtirilgan holda o'rganilishi nazarda tutilgan fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda ishlaydi.

14. Yuqori ko'rsatkichlarga erishgan iqtidorli talabalarga bo'limi tavsiyasiga binoan, ayrim fanlar bo'yicha darslarga (o'qituvchining roziligi bilan) erkin qatnashish huquqi berilishi mumkin.

15. Har o'quv yilining yakunida iqtidorli talabaning qobiliyati, o'quv-ilmiy sifatlarining reytingi aniqlanadi hamda uning shaxsiy xujjatlar papkasiga tikiladi.

V §. **IQTIDORLI TALABALAR BILAN ISHLASHDA BO'LIMNING VAZIFALARI:**

16. **Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limining vazifalari quyidagilardan iborat:**

- iqtidorli talabalarni izlash va aniqlashni tashkil etish;
- ta'lim olayotgan iqtidorli talabalarning intellektual salohiyotini muntazam ravishda aniqlab borish;
- iqtidorli talabalarning moyilligiga qarab, ularni maqsadli tayyorlashni uyushtirish;
- chet tili va kompyuterni mukammal egallash maqsadida mashg'ulotlarni tashkil etish;
- fundamental ilmiy-tadqiqot ishlariga, ilmiy to'garaklarga va mualliflik jamoalariga jalb qilishni uyushtirish;
- iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalarini chop etishga hamda ularning ilmiy ishlari va ilmiy ishlanmalarini amaliyotga joriy etishda ko'maklashish;
- iqtidorli talabalarni respublika va xalqaro miqyosda o'tqaziladigan ilmiy anjumanlarda ishtirok etishini ta'minlash hamda xorijiy davlatlarga o'qishga va stajirovkaga yuborishni tashkil etish;
- iqtidorli talabalar safidan O'zbekiston Respublikasi davlat stipendiyalariga nomzodlarni maxsus tayyorlash;
- iqtidorli talabalarni ilm va fan arboblari, ishlab chiqarish korxonalarining rahbarlari va yirik mutaxassislari bilan uchrashuvlarini tashkil etish;
- iqtidorli talabalar uchun ixtisoslik bo'yicha kasb o'yinlarini tashkil etish;
- iqtidorli talabalar o'rtasida muntazam ravishda kasbga oid tadqiqotlarni

o'tkazib turish;

- marketing tadqiqotlari, buyurtmachilar talablarini chuqur o'rganish va tashkil etilayotgan ta'lim xizmatlari banki asosida iqtidorli talabalarga fanlarni tanlashda yordam ko'rsatish;

- zamonaviy axborot tizimidan foydalanishga shart-sharoitlar yaratish.

16. IQTIDORLI TALABALAR VA ULARNING RAHBARLARINI RAG'BATLANTIRISH VA TAQDIRLASH

17. Iqtidorli talabalarni maqsadli tayyorlash dasturiga sarflanadigan xarajatlar institut hisobidan amalga oshiriladi.

18. Yuqori ko'rsatgichlarga erishgan, ilmiy ishlar bo'yicha shaxsiy rejani namunali bajargan iqtidorli talabalar, ularga birlashtirilgan rahbarlarning tavsiyalariga muvofiq o'quv yili yakuni bo'yicha institut rahbariyati tomonidan moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirilishlari va taqdirlanishlari mumkin.

19. Iqtidorli talabalarni qo'shimcha ravishda rag'batlantirish va taqdirlash turlari institutning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda kengaytirilishi mumkin.

20. Buyurtmachi korxonalar, tashkilot va muassasa iqtidorli talabalarga qo'shimcha stipendiya belgilashi mumkin.

21. Iqtidorli talabalar bilan ishlashda yuqori natijalarga erishgan (olimpiada, tanlov, talabalar ilmiy ishlari ko'rigida g'olib chiqqan, ilmiy maqolalari chop etilgan va h.k.) ilmiy rahbar, konsultant va o'qituvchilar bo'lim tomonidan quyidagi rag'batlantirish va taqdirlashga tavsiya etiladi:

- vazirlik va oliy o'quv yurtining buyrug'i bilan tashakkurnoma e'lon qilish;

- qo'shimcha oylik maosh belgilash (agar umumiy reytingi ham yuqori bo'lsa);

- o'quv yili yakuni bo'yicha uch oylik muddatda maosh miqdorida mukofotlash;

- faxriy unvonlarga tavsiya etish;

- chet elga stajirovka va tajriba almashishga yuborish;

- dam olish maskanlari va sanatoriyalarga yo'llanma berish;

- buyurtmachi tashkilot iqtidorli talabalarning ilmiy rahbarlari, maslahatchilari va o'qituvchilariga qo'shimcha oylik maosh belgilashi mumkin.

**Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini
tashkil etish bo'limi boshlig'i:**



N.Gulamova.


Kiritildi



N. Gulamova


Kelishildi:

Ilmiy ishlar, innovatsiyalar
va ilmiy pedagogik kadrlar
tayyorlash bo'lim boshlig'i




M. Kadirova

O'quv ishlari bo'yicha prorektor




M. Botirov

Ishlar boshqarmasi boshlig'i
Tibbiy profilaktika va
jamoat salomatligi
fakulteti dekani




E. Djorayev

Davolash ishi fakulteti dekani




D. Ten

Xalqaro fakulteti dekani



N. Xaydarova

Katta yurist konsultant



A. Axmedov